

AYLANMA MABLAG'LARNI BOSHQARISH – SANOAT KORXONASINING OPERATSION FAOLIYAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH ASOSI SIFATIDA

Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich
Namangan davlat texnika universiteti
"Menejment" kafedrası dotsenti, i.f.n.
baxtiyordedajanov@gmail.com
+998 94 928 27 72

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarida operatsion faoliyat va aylanma mablag'larni oqilona boshqarish mazmuni, soha olimlarining va o'zimizning ushbu tushunchalarga bo'lgan ilmiy yondashuvlarimiz yoritib o'tilgan. Aylanma mablag'larni oqilona boshqarish aylanma mablag'larini boshqarish strategiyasiga asoslanishi kerakligi, aylanma mablag'lar boshqaruv obyekti sifatida emas, balki korxona mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish uchun zarur bo'lgan manba sifatida zarurligi ta'riflangan. Shuningdek aylanma mablag'lar sohasida ham, umuman olganda ham boshqaruv qarorlarini qabul qilishda korxona boshqaruv harakatlarining yo'nalishini belgilovchi maqsadli mezon uning faoliyati strategiyasi bilan chambarchas bog'liqligiga urg'u berilgan. Aylanma mablag'larni boshqarishga doir modellarni ishlab chiqishning asosiy printsiptini, aylanma mablag'larni boshqarish strategiyasining tasnifini yaratishga yondashuvning o'zini, statik printsiptan dinamik printsiptga o'tishni o'zgartirish kerakligi, ya'ni ma'lum bir ishlab chiqarish va mahsulot sotish hajmiga mos keladigan aylanma mablag'larning nisbiy miqdoriga tayanmasdan, balki aylanma mablag'lar va mahsulot hajmining yo'nalishi hamda tezligini birgalikda tahlil qilishga asoslanishi lozimligi bayon etilgan. Mavzu doirasida tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: operatsion tizim, operatsion faoliyat, aylanma mablag'lar, aylanma mablag'larni boshqarish, aylanma mablag'larni boshqarishning maqsadli mezonlari, aylanma mablag'larini boshqarishning asosiy strategiyasi, konservativ strategiya, agressiv strategiya, modellarni ishlab chiqish, strategiya turini belgilash

Kirish. Zamonaviy sanoat va xizmat ko'rsatish korxonalari murakkab tizim bo'lib, ularning samaradorligi sezilarli darajada operatsion tizimni boshqarish sifatiga bog'liq. Operatsiyalarni boshqarish predmeti sharoitlar va ma'lumotlarning turli darajadagi noaniqligi bilan bog'liq vaziyatlarda yuzaga keladigan turli xil murakkablikdagi boshqaruv muammolarini hal qilishdan iborat.

Korxonaning operatsion faoliyati – bu uning tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda sotish bilan bog'liq asosiy faoliyatidir. Ushbu faoliyatning natijasi resurslar majmuasidan - moddiy, moliyaviy, inson va axborot resurslaridan foydalanish orqali shakllanadi. Garchi ushbu resurslarning barcha turlari operatsion faoliyatda ishtirok etsa ham, ulardan foydalanish nisbati va hajmi sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, operatsion xarajatlarda, ya'ni tayyor mahsulot tannarxida aks ettirilgan operatsion faoliyatning yakuniy natijasiga eng katta hissa moddiy resurslar tomonidan qo'shiladi.

Moddiy resurslarning ishlab chiqarish tarmoqlarida operatsion faoliyat xarajatlariga qo'shgan hissasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'z navbatida, moddiy xarajatlar, shu jumladan xomashyo, yoqilg'i va energiya korxona aylanma mablag'larining o'zida mujassamlangan elementlari hisoblanadi, ya'ni operatsion faoliyat natijasi ko'p jihatdan korxonaning aylanma mablag'laridan qanchalik samarali foydalanilishiga bog'liq degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashqi muhitning tez o'zgaruvchanlik muhitiga mos keladigan moddiy resurslar

bilan ta'minlash va ishlab chiqarishdan foydalanish bilan bog'liq jarayonlarni boshqarish mexanizmining mavjud emasligi bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida sanoat korxonalarining moddiy resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish muammosini o'rganishni taqozo etadi. Korxonaning moddiy resurslarini boshqarishni takomillashtirishda o'z ishlab chiqarish, mahsulot (ish, xizmatlar) sotish samaradorligini oshirish, uning sifatini oshirish, unumsiz yo'qotishlar va ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish yo'llari ishlab chiqiladi. Korxonaning moddiy resurslaridan samarali foydalanish muammosini o'rganish korxonalarda operatsion faoliyat strategiyasini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Adabiyotlar sharhi. Klassik ta'rifga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektning aylanma mablag'lari – bu xo'jalik faoliyati jarayonida bir marta ishtirok etadigan, o'z qiymatini to'liq va darhol tayyor mahsulotga o'tkazadigan va xo'jalik faoliyati jarayonida tabiiy-moddiy shaklini o'zgartiradigan mulkiy aktivlar yig'indisidir. Ushbu uchta xususiyat korxonaning aylanma mablag'lari va asosiy vositalari o'rtasidagi tub farqning mohiyatini tashkil qiladi. Asosiy vositalar, aksincha, xo'jalik yurituvchi subyekt jarayonida qayta-qayta ishtirok etib, o'z qiymatini yaroqlilik muddati davomida, asta-sekin amortizatsiya ajratmalari orqali tayyor mahsulot tannarxiga qismlarga bo'lib o'tkazadi va bundan tashqari, xo'jalik faoliyati jarayonida o'zining tabiiy-moddiy (jismoniy) shaklini o'zgartirmaydi. Aylanma mablag'larning qo'shimcha xarakterli belgisi uning bir operatsion tsikl yoki bir yil ichida pul shakliga aylanish qobiliyati hisoblanadi.

"Aylanma vositalar"ni, "aylanma aktivlar"ni, "aylanma fondlar"ni, "aylanma mablag'lar"ni to'g'ri ta'riflash masalalari O.V.Golikova, V.P.Zotov, Ye.A.Jidkov, A.O.Kuzmin, L.I.Malyavkina, O.S.Rogova va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida hisobga olinadi¹⁸.

Bundan tashqari, aylanma mablag'larni boshqarish nazariyasida korxona aylanma mablag'larning doimiy qiymatini saqlab qolgan holda va hatto uning pasayishi bilan ham ishlab chiqarish va mahsulot sotish hajmini oshiradigan strategiyalarning ushbu variantlarini qanday tasniflash mumkinligi masalasi e'tiborsiz qoldirildi. Ba'zi bir mualliflar, bunday haqiqatda juda real vaziyatlarning mumkin emasligini to'g'ridan-to'g'ri ta'kidlaydilar. Ya'ni, O.B.Veretennikova va O.A.Layenkolar "Agar iqtisodiyotda o'sish kuzatilsa, u holda korxona aylanma mablag'larni ko'paytirishni rejalashtirishi kerak" - deb hisoblashadi¹⁹, V.V.Buzyrev va A.A.Bobkovlar "Ishlab chiqarishga bo'lgan ehtiyojning oshishi bilan zaxiraga bo'lgan

¹⁸ Голикова О.В. Понятие материальных оборотных активов и их роль в кругообороте средств предприятия / О.В. Голикова, Е.Г. Нестеренко // Вестник Волжского университета им. В.Н. Татищева. – 2010. – №21. – С.58–66. Зотов В.П. Определение сущности оборотного капитала в современной экономике / В.П. Зотов, Е.А. Жидкова // Техника и технология пищевых производств. – 2014. – №2. – С.135–139. Кузьминых, А.О. Необходимость классификации оборотных активов / А.О. Кузьминых, Т.Б. Лейберт // Проблемы современной экономики (Новосибирск). – 2012. – №10. – С.119–123. Малявкина, Л.И. Цифровая экономика: анализ основных подходов к определению / Л.И. Малявкина // Образование и наука без границ: фундаментальные и прикладные исследования. – 2017. – №6. – С.198–202. Рогова О.С. Теоретические аспекты эффективности использования оборотных средств / О.С. Рогова, Г.З. Ситдикова // NOVAINFO. – 2015. – №32–1. – С.103–107.

¹⁹ Веретенникова О.Б. Сущность оборотного капитала и его классификация / О.Б. Веретенникова, О.А. Лаенко // Вестник Омского университета. Серия: Экономика. – 2012. – №2. 182-с,

ehtiyoj ortadi" - deb ta'kidlaydilar²⁰.

I.M.Rojkov, A.A.Boykov, O.V.Shilov va P.O.Arseyeva, Ye.A.Tretyakova va E.A.Ismagilova, Ye.Yu.Shagayeva ilmiy ishlari aylanma mablag'larni boshqarish strategiyalarini farqlash mezonlarini izlashga bag'ishlangan²¹.

T.V.Zaxarova va E.Yu.Karpicheva "korxonaning operatsion faoliyatining samaradorligi... aylanma mablag'lar bilan ishlash jarayonini takomillashtirmasdan amalga oshirish mumkin emas" deb ta'kidlaydilar²².

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida soha olimlarining aylanma mablag'lar va ularni boshqarishga bo'lgan ilmiy yondashuvlari o'rganildi. Sanoat korxonalarida aylanma mablag'larning tarkibi va ularni boshqarish tuzilishi yoritib o'tildi. Olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar asosida kuzatish, mantiqiy yondashuv va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Aylanma mablag'larni oqilona boshqarish mahsulot ishlab chiqarish va sotishda korxona faoliyatini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Aslida, korxonaning operatsion faoliyati strategiyasining o'zi uning aylanma mablag'larini boshqarish strategiyasiga asoslanishi kerak, chunki aylanma mablag'lar boshqaruv obyekti sifatida emas, balki korxona mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish uchun zarur bo'lgan manba sifatida zarur hisoblanadi. Shu munosabat bilan, aylanma mablag'larni boshqarish strategiyasini shakllantirish bo'yicha mavjud yondashuvlarni batafsil ko'rib chiqish, ushbu yondashuvlardagi muammo va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishni hisobga olgan holda, aylanma mablag'larni boshqarish strategiyalarining tasnifini va kengroq ma'noda korxonaning operatsion faoliyati strategiyalarini ishlab chiqish lozim deb hisoblaymiz.

Aylanma mablag'lar odatda aylanma ishlab chiqarish fondlari va aylanma mablag'larga bo'linadi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayoniga, shu jumladan unga tayyorgarlik ko'rishga xizmat qiladi. Aylanma ishlab chiqarish fondlariga kiruvchi tovar-moddiy zaxiralar shaklidagi xom ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va boshqa aylanma mablag'lar hamda tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralari shaklidagi aylanma mablag'lar kiradi. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarish bosqichi bilan emas, balki sotish bosqichi bilan bog'liq. Bularga tayyor mahsulot shaklidagi aylanma mablag'lar, shuningdek, pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari, shu jumladan, debitorlik qarzlari ko'rinishidagi aylanma mablag'lar

²⁰ Бузырев В.В. Методология совершенствования системы управления оборотными средствами предприятия стройиндустрии / В.В. Бузырев, А.А. Бобков // Известия Иркутской государственной экономической академии. – 2009. – №3. 91-с.


²¹ Рожков И.М. Выбор стратегий управления оборотными средствами предприятия с целью повышения относительной добавленной стоимости производимой им продукции / И.М. Рожков, А.А. Бойков, И.А. Ларионова, О.В. Шилов, П.О. Арсеева // Экономика в промышленности. – 2015. – №2. 90-с. Третьякова Е.А. Анализ политики управления оборотным капиталом малых предприятий сферы промышленного производства / Е.А. Третьякова, Е.А. Исмагилова // Экономический анализ: теория и практика. – 2010. – №26 (191). 16-с.

Шагаева Е.Ю. К вопросу об управлении оборотными средствами предприятий муниципальной формы собственности / Е.Ю. Шагаева // Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. – 2008. – №2. – С.168–171.

²² Захарова Т.В. Системный подход к принятию решений при совершенствовании процесса управления оборотными средствами предприятий / Т.В. Захарова, Е.Ю. Карпычева // Вестник ОрелГИЭТ, 2013. – №3. – С.126–134. Карпычева, Е.Ю. Стратегии и модели управления оборотными средствами на предприятии / Е.Ю. Карпычева // Научные записки ОрелГИЭТ. – 2014. – №1. – С.169–177.

kiradi. Aylanma mablag'lar tarkibining an'anaviy sxemasi quyidagi 1-rasmda ko'rsatilgan.

Aylanma mablag'lar me'yorlashtirish darajasi bo'yicha me'yorlashtirilgan va me'yorlashtirilmaydigan tasniflarga bo'linadi. Korxonalarda, odatda, zaxiralar me'yorlashtiriladi: kiruvchi tovar-moddiy zaxiralar (xom ashyo, asosiy materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va boshqalar), tugallanmagan ishlab chiqarish zahiralar, shuningdek, tayyor mahsulot zahiralar. Me'yorlashtirilmaydigan aylanma mablag'lar odatda pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.



1-rasm. Sanoat korxonalarining aylanma mablag'lari tarkibi.

Aylanma mablag'lar miqdorini umumiy va alohida elementlar bo'yicha optimallashtirishning muammolari va usullari kiruvchi tovar-moddiy zaxiralarini etkazib berish partiyalarining optimal hajmini, tayyor mahsulotlar zaxiralarini modellashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida (Xarris-Uilsonning klassik modeli va uning modifikatsiyalari), shuningdek korxona pul mablag'lari va ularning likvid ekvivalentlari miqdorini optimallashtirish modellarida (Baumol, Miller- Orr modellari) ko'rib chiqiladi.

Korxona moliyaviy masalalarini boshqarish nazariyasi va amaliyotida aylanma mablag'larni moliyalashtirish masalalari katta ahamiyatga ega. Jalb qilingan manbalarining tuzilishiga ko'ra, agressiv, konservativ va o'rtamiyona moliyalashtirish strategiyalari (variantlar, yondashuvlar, siyosatlar, tizimlar) bilan farqlanadi. Qarz kapitalining ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, aylanma mablag'larni moliyalashtirish strategiyasi shunchalik agressiv (shu bilan birga xavfli va yuqori samarali) hisoblanadi.

Bizning tadqiqot ishimizda aylanma mablag'larni moliyalashtirish masalalari ko'rib chiqilmaydi, chunki ular birinchi navbatda operatsion emas, balki korxonaning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq hisoblanadi.

Aylanma mablag'lar – bu korxona aktivlarining eng moslashuvchan, harakatchan va likvid qismi, uning doimiy harakatda bo'lgan "qon aylanish tizimi"dir. Ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati jarayonida aylanma mablag'lar bir shakldan ikkinchi shaklga o'tib, bir necha bosqichlardan o'tadi.

Birinchi bosqichda korxona mablag'lari ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan takror ishlab chiqarish omillarni - xom ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor komponentlar va boshqalarni sotib olishga yo'naltiriladi. *Ikkinchi* bosqichda takror ishlab chiqarish omillari texnologik ishlov berishdan o'tadi va avval tugallanmagan ishlab chiqarishga, so'ngra tayyor mahsulotga aylanadi. *Uchinchi* bosqichda tayyor mahsulotlar xaridorga jo'natiladi va yetkazib beriladi (ishlab chiqarish bosqichi tugaganidan keyin yoki korxonaning tayyor mahsulot omborida ma'lum vaqt bo'lganidan keyin) va darhol yoki ma'lum vaqtdan so'ng, xaridorlarning to'lanmagan hisoblari (debitorlik qarzlari) shaklidagi pul mablag'lariga aylanadi. Uch bosqichni birgalikdagi harakati aylanma mablag'lar aylanishini tashkil qiladi. Aylanmaning har bir bosqichida aylanma mablag'larni korxona menejmenti tomonidan uzluksiz boshqarish jarayoni amalga oshiriladi.

Iqtisodiy nazariyada "boshqarish" toifasining ko'plab ta'riflari mavjud, ammo aksariyat mualliflar menejment – bu boshqaruv subyekting boshqaruv funktsiyalaridan foydalangan holda boshqaruv obyektiga ongli, maqsadli ta'siri degan fikrga qo'shiladilar.

A.B.Borisov tomonidan tahrirlangan katta iqtisodiy lug'atda boshqarishni "davlat va iqtisodiy subyektlar tomonidan odamlarga va iqtisodiy obyektlarga ularning harakatlarini to'g'ri yo'naltirish va kerakli natijalarga erishish uchun ongli, maqsadli ta'sir qilish" – deb ta'riflaydi²³.

Obyektga ta'sir etuvchi, boshqaruv qarorini qabul qiluvchi boshqaruv subyekti (boshqaruv tizimi) hisoblanadi. Bu shaxs - menejer, direktor yoki jamoa-direktorlar kengashi, aktsiyadorlar yig'ilishi bo'lishi mumkin.

Boshqarish obyekti (boshqariladigan tizim) boshqaruv harakati, ta'siri nimaga (yoki kimga) qaratilganligidir.

Yu.K.Mashuninning so'zlariga ko'ra, "boshqaruv obyektlari" quyidagilar bo'lishi mumkin²⁴:

- korxona (tashkilot)lar va ularning bo'linmalari, ishlab chiqarish omillari, ishlab chiqarish jarayonlari va boshqalar;
- aholining hududiy hamjamiyatlari (tuman, shahar, viloyat, davlat, davlatlararo munosabatlar);
- korxonalar, faoliyat turlari, tarmoqlar (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va boshqalar);

²³ Борисов А.Б. Большой экономический словарь / А.Б. Борисов. – М.: Книжный мир, 2006. 481-с.

²⁴Машунин Ю.К. Теория управления. Математический аппарат управления в экономике: учебное пособие / Ю.К. Машунин. – М.: Логос, 2013. 32 -с.


- takror ishlab chiqarishning alohida bosqichlari (ishlab chiqarish, yetkazib berish, sotish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari - ITTKI);
- iqtisodiy faoliyat aspektlari (mahsulot sifati, iste'molchilar bilan o'zaro munosabatlar, marketing);
- resurslar turlari (moddiy, moliyaviy, inson – mehnat, ishlab chiqarish quvvatlari), shuningdek, ishlab chiqarish xususiyatlari (samaradorlik, mehnatga munosabat, turmush sifati, bandlik darajasi va boshqalar)".

Boshqaruv obyektlarining birinchi guruhida ishlab chiqarish omillari – hayot ne'matlarini yaratish uchun foydalaniladigan resurslar mavjud. Klassik iqtisodiy nazariyasiga muvofiq ishlab chiqarishning asosiy omillari: mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati, axborotlardir. Korxonaning zamonaviy, "resurs" deb ataladigan kontseptsiyasi ishlab chiqarish omillarining yanada keng qamrovli tizimini o'z ichiga oladi: uzoq muddatli va aylanma aktivlarni o'z ichiga olgan texnik resurslar; texnologiyalar, fazoviy resurslar (binolar, inshootlar, yerlar), axborot, inson, moliyaviy resurslar, boshqaruv va tadbirkorlik qobiliyatlari²⁵.

Korxonaning eng muhim texnik resurslaridan (ishlab chiqarish omillari) biri aylanma mablag'lar bo'lib, ular "korxonaning aylanma mablag'lari uning buxgalteriya balansida aks ettirilgan" hisoblanadi²⁶. Aylanma mablag'lar, o'z navbatida, aylanma ishlab chiqarish fondlari va aylanma fondlarga avans qilingan pul mablag'laridir. Aylanma ishlab chiqarish fondlariga xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, idish (tara)lar, tugallanmagan ishlab chiqarish, keyingi davr xarajatlari va boshqa elementlar kiradi. Aylanma mablag'lar omborlardagi va yo'l-transportdagi tovarlar, shuningdek korxonaning kassasidagi, uning hisob-kitob va boshqa hisob raqamlaridagi pul mablag'lari bilan ifodalanadi²⁷.

Shunday qilib, aylanma mablag'larni boshqarish boshqaruv subyektlarining kerakli natijaga erishish uchun aylanma mablag'larga ongli ravishda maqsadli ta'siri sifatida talqin qilinishi mumkin.

Korxonaning aylanma mablag'larini boshqarishning umumiy sxemasi quyidagi rasmda keltirilgan.



2-rasm. Korxonaning aylanma mablag'larini boshqarishning umumiy sxemasi.

²⁵ Энциклопедический словарь [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://dic.academic.ru/dic.nsf/es/90977/>.

²⁶ Кураков Л.П. Экономика и право: словарь-справочник / Л.П. Кураков, В.Л. Кураков, А.Л. Кураков. – М.: Вуз и школа, 2004.722-с.

²⁷ Терминологический словарь банковских и финансовых терминов [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://dic.academic.ru/dic.nsf/fin_enc/26027.

Boshqaruv jarayoni boshqaruv funktsiyalari deb ataladigan muayyan harakatlarni bajarishni talab qiladi. Boshqaruvning quyidagi funktsiyalari mavjud: prognozlashtirish, rejalashtirish, qaror qabul qilish, hisob, nazorat, tahlil va tartibga solish²⁸. Ba'zida funktsiyalar ro'yxati rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazoratni o'z ichiga olgan "optimal to'plam"ga qisqartirilgan²⁹.

Rejalashtirish belgilangan muddatlar, mas'ul ijrochilar va maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarni ko'rsatgan holda ma'lum bir davr uchun reja (dastur) ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Tashkilotning funktsiyasi rejani amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi va boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqishni, ishlab chiqarish va mehnat jarayonini tashkil etishni, majburiyatlarni taqsimlashni, tashkilotning tashqi muhit bilan munosabatlarini va korxona ichidagi kommunikatsiyalarni o'z ichiga oladi. Motivatsiya funktsiyasi – bu korxonaning shaxsiy va tashkiliy maqsadlarga erishishga hissa qo'shadigan rag'batlantirish jarayoni. Nazorat funktsiyasi rejaning bajarilishini va belgilangan natijalarga erishishni tekshirish bilan bog'liq.

Korxonaning aylanma mablag'lariga nisbatan boshqaruv funktsiyalari aylanma mablag'larning har xil turlariga investitsiya qilingan pul mablag'lari hajmini rejalashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va sotishning oqilona jarayonini tashkil etish, aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligining haqiqiy ko'rsatkichlarini hisobga olish va monitoring qilish orqali amalga oshiriladi. Ushbu funktsiyalar orqali haqiqiy qiymatlarning rejalashtirilgan qiymatlardan og'ishlarini minimallashtirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish mumkin.

Boshqarish maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lganligi sababli, aylanma mablag'larni boshqarish tizimida maqsadni belgilash eng muhim masala hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari uning hayotiy siklining turli bosqichlarida, tashqi muhit tomonidan yaratilgan turli faoliyat sharoitlarida farq qilishi mumkin. Maqsad foyda va rentabellikni maksimallashtirish, sotish hajmini va bozor ulushini maksimal darajada oshirish, yoki saqlab qolish, bankrotlikning oldini olish va boshqalar bo'lishi mumkin.

So'nggi paytlarda ilmiy va o'quv adabiyotlarida biznes qiymatini maksimallashtirish nazariyasi ustunlik qilmoqda, unga muvofiq korxona boshqaruvining asosiy maqsadli mezonini uning qiymatini maksimallashtirishdir, bu uning aktsiyalarining bozor narxini maksimal darajada oshirishda namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, boshqaruv xodimlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar korxonaning sof aktivlari (o'z kapitali) qiymatini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak, bu esa o'z navbatida, uning aktsiyalari qiymatining oshishini anglatadi. Ushbu strategik maqsad doirasida boshqa maqsadli ko'rsatkichlar ham bajarilishi kerak: foyda va rentabellikni o'sishi, sotish hajmini oshirish, bozor ulushini saqlash, moliyaviy barqarorlik va mustaqillikni saqlash, to'lov qobiliyatini saqlash va boshqalar. S.V.Orexova ta'kidlaganidek, "tarmoqning barqaror iqtisodiy o'sishiga erishish

²⁸Машунин Ю.К. Теория управления. Математический аппарат управления в экономике: учебное пособие / Ю.К. Машунин. – М.: Логос, 2013. 33-с.

²⁹Коробко В.И. Теория управления: учебное пособие / В.И. Коробко. – М.: Юнити-Дана, 2015. 20-с.

moliyaviy natijalarni, korxona kapitali va uning faoliyati uchun zarur bo'lgan resurslarni muvozanatlashtirishga asoslanadi"³⁰.

Aylanma mablag'lar sohasida ham, umuman olganda ham boshqaruv qarorlarini qabul qilishda korxona boshqaruv harakatlarining yo'nalishini belgilovchi maqsadli mezon uning faoliyati strategiyasi bilan chambarchas bog'liq.

Aylanma mablag'larni boshqarishning maqsadli mezonlari korxonani boshqarish mezonlaridan farq qilishi mumkin. Umuman olganda, boshqaruvning barcha maqsadli mezonlarini ikki guruhga bo'lish mumkin: bir tomondan samaradorlik ko'rsatkichlari va boshqa tomondan faoliyatning ishonchliligi. Shuni ta'kidlash lozimki, bir vaqtning o'zida ikki guruh ko'rsatkichlari uchun mumkin bo'lgan eng yuqori qiymatlarga erishish mumkin emas. Faoliyatning samaradorligi va ishonchliligi bir-biriga zid jarayondir. Mumkin bo'lgan eng yuqori samaradorlikka erishish (tovar aylanmasi, rentabellik), qoida tariqasida, eng yuqori darajadagi xavf bilan bog'liq va operatsion faoliyatning ishonchlilik ko'rsatkichlarini (likvidlik, barqarorlik, to'lov qobiliyati) minimallashtirishga olib keladi. Aksincha, korxonaning operatsion faoliyatining ishonchliligini oshirish istagi odatda uning faoliyati samaradorligining pasayishi bilan birga keladi. Shu sababli, korxona rahbariyati har doim faoliyatning maqsadli ko'rsatkichlarini tanlash va ularning mumkin bo'lgan maksimal ko'rsatkichlarga intilayotgan yoki tashkilot faoliyati samaradorligi va ishonchliligi muvozanati nuqtai nazaridan murosaga keladigan oqilona qiymatlarini aniqlash muammosiga duch keladi.

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi odatda resurslarning intensivligi va resurslar samaradorligi ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Resurs intensivligining asosiy ko'rsatkichlariga aylanma mablag'larning yuklanish koeffitsiyenti (fiksatsiyasi), resurslar unumdorligi ko'rsatkichlariga aylanma mablag'larning aylanishi va rentabelligi kiradi. Aylanma mablag'larni yuklanish koeffitsiyenti ma'lum bir davr uchun aylanma mablag'larning o'rtacha qiymatining shu davrdagi daromad miqdoriga nisbati sifatida hisoblanadi va tahlil qilingan davrda sotishdan tushgan tushumning bir so'mini olish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'lar miqdorini ko'rsatadi. Aylanma mablag'larning rentabelligi ularning rentabelligini tavsiflaydi va korxona foyda turlaridan birining tahlil qilinayotgan davr uchun aylanma mablag'larning o'rtacha qiymatiga nisbati bilan belgilanadi.

Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsiyenti moliyaviy natijaning (odatda tushumning) aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'iga nisbati va yuqorida ko'rsatilgan koeffitsiyentga teskari ko'rsatkich sifatida hisoblangan aylanma davomiyligi orqali baholanadi. Hisoblash qulay bo'lishi uchun aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'ining moliyaviy natijaga nisbati, odatda kunlarda tahlil qilingan davrning davomiyligiga ko'paytiriladi. Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsiyentining o'sishi yoki xuddi shu tarzda aylanma mablag'larning aylanish davomiyligining qisqarishi aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligining oshganligidan dalolat beradi, deb asoslanadi.

³⁰ Орехова С.В. Оценка устойчивости экономического роста металлургического комплекса / С.В. Орехова // Вестник НГУЭУ. – 2017. – №2. 206-207-с.

Aylanma mablag'larni faqat aylanish ko'rsatkichlari asosida boshqarishni to'liq deb hisoblash mumkin emas, chunki u aylanma mablag'larning korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatiga ta'sirining boshqa jihatlari va ko'rinishlarini namoyon bo'lishini hisobga olmaydi. Samaradorlik ko'rsatkichlari bilan bir qatorda korxona faoliyatining ishonchliligi ko'rsatkichlari ham hisobga olinishi kerak. Ushbu ikki guruh ko'rsatkichlarini birgalikda ko'rib chiqish zamonaviy iqtisodiy nazariyada bu guruhlarining uchta mumkin bo'lgan kombinatsiyasi va natijada aylanma mablag'larni boshqarish strategiyasining uchta varianti to'g'risidagi g'oyaning paydo bo'lishiga olib keldi.

Bugungi kunda korxonaning aylanma mablag'larini boshqarishning uchta asosiy strategiyasi (boshqa manbalarga ko'ra - uch turdagi siyosat, uchta yondashuv, uchta tizim va boshqalar) mavjudligi keng tarqalgan: konservativ, agressiv va o'rtacha (kompromiss).

Ularning bir-biridan farqi, xuddi shunday yondoshuvchi olimlarning fikriga ko'ra, bir xil hajmdagi mahsulot ishlab chiqarish uchun jalb qilingan aylanma mablag'lar miqdoridadir.

Birinchi yondashuvning mantig'i juda tushunarli bo'lib tuyuladi - konservativ strategiya - bu kamroq xavfli va shu bilan birga unchalik samarali hisoblanmaydi, aksincha, agressiv strategiya esa ko'proq xavfli va samaraliroq hisoblanadi (investorlar tipologiyasiga o'xshab - konservativ investor risklarni minimallashtirishga intiladi, garchi rentabellikni yo'qotsa ham, agressiv investor yuqori daromad olish uchun yuqori xavflarni o'z zimmasiga olishga tayyordir).

Ikkinchi yondashuvga ko'ra, agressivlik birinchi navbatda, korxonaning bozordagi agressiv xatti-harakatlarida, mahsulotlarni mijozlarga faol ravishda "tag'ib qilishda" namoyon bo'ladi, bu esa debitorlik qarzlarning ko'payishiga va sotish hajmini o'sishiga qarab xom ashyo va tayyor mahsulotlarning katta zaxiralarini yaratishga olib keladi. Mualliflar konservatizmni cheklangan resurslar, qashshoqlik va qat'iy tejamkorlik bilan bog'laydilar. Bizningcha, strategiya nomlariga birinchi yondashuv xo'jalik yurituvchi subyektlarning konservativ va agressiv xatti-harakatlari haqidagi umume'tirof etilgan g'oyalarga ko'proq asoslanadi va mos keladi. Boshqa mualliflar masalan, I.N.Dudin, N.V.Lyasnikovlar ham bu fikrga qo'shiladilar³¹.

Shu bilan birga, ushbu modelga bo'lgan da'volarimiz tushunchalardagi chalkashliklar bilan tugamaydi. Uning asosiy kamchiligi - aylanma mablag'larni boshqarish strategiyalarini aniq tasniflash imkonini beradigan rasmiylashtirilgan mezonlarning yo'qligi. Tadqiqotchilarning bunday mezonlarni yaratishga bo'lgan yondashuvlari diqqatga sazovordir. Masalan, I.A.Larionovanning ilmiy tadqiqotlarida aylanma mablag'larni boshqarish strategiyalarini farqlash maqsadida aylanma mablag'lar qiymatining balans valyutasiga nisbati bo'lgan ko'rsatkich taklif qilingan³². Aylanma mablag'larni boshqarish strategiyalarining intervallari chegaralarini

³¹ Дудин М.Н. Сущность и методы управления оборотным капиталом организации / М.Н. Дудин, Н.В. Лясников // Экономика и социум: современные модели развития. – 2014. – №8–1. – С. 5–28.

³² Ларионова И.А. Задачи совершенствования методик диагностики и управления оборотными средствами с использованием интегральных показателей и оптимизационных моделей / И.А. Ларионова / Вестник Самарского государственного экономического университета. – 2008. – №12.67-с.

to'plangan statistik ma'lumotlar asosida belgilash va dastlabki ma'lumotlarga qarab o'zgartirish taklif etiladi.

Modellarni ishlab chiqishning asosiy printsipini, aylanma mablag'larni boshqarish strategiyasining tasnifini yaratishga yondashuvning o'zini, statik printsipdan dinamik printsipga o'tishni o'zgartirish kerak, ya'ni ma'lum bir ishlab chiqarish va mahsulot sotish hajmiga mos keladigan aylanma mablag'larning nisbiy miqdoriga tayanmasdan, balki aylanma mablag'lar va mahsulot hajmining yo'nalishi hamda tezligini birgalikda tahlil qilishga asoslanishi lozim.

Bundan tashqari, ushbu modelning amaliy foydaliligini oshirish istagi bizni qat'iy rasmiylashtirilgan mezonlar, aniq raqamli parametrlarni yaratishga olib kelishi kerak, bu esa aylanma mablag'larni boshqarish strategiyalarining turlarini nazariy jihatdan aniq chegaralashga va amalda korxona uchun strategiya turini belgilashga imkon beradi. Aylanma mablag'larni boshqarish strategiyasining turini aniqlash modeli nafaqat "korxonani moliyaviy boshqarishning umumiy falsafasini aks ettirishi" kerak³³, balki uning maqsadi bugungi kunda I.A.Blank tomonidan shakllantirilgan korxonani tahlil qilish va boshqarishning samarali vositasiga aylanishi kerak. Ma'lumki, strategiya – bu "resurslarni taqsimlashni belgilovchi, belgilangan maqsadlarga erishish uchun vaqt o'tishi bilan rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish majburiyatlarini belgilovchi faoliyat rejalari va yo'nalishlaridir"³⁴. Strategiyani bunday tushunish uni korxona boshqaruvi uchun juda aniq, miqdoriy jihatdan baholanadigan vosita deb hisoblash imkonini beradi. Shu munosabat bilan, tadqiqotning vazifasi butun sanoat korxonasining operatsion faoliyati strategiyasini aks ettiruvchi, uning asosiy maqsadlariga mos keladigan korxona aylanma mablag'larini boshqarish strategiyalarining tasnifini ishlab chiqishdan iborat.

Xulosalar. Shunday qilib, bugungi kunda iqtisodiyot fanida mavjud bo'lgan sanoat korxonasining operatsion faoliyat strategiyasini shakllantirish va amalga oshirishning nazariy hamda uslubiy muammolarini shakllantirish mumkin:

- sanoat korxonasi faoliyati turlarining izchil tasnifi mavjud emas, bu korxoning asosiy - operatsion faoliyatining o'rni, maqsadi va mazmunini aniq ko'rsatib beradi, uning korxona faoliyatidagi rolini, korxona faoliyatining ishlab chiqarish, investitsiya, moliyaviy va boshqa turlari bilan tuzilishi va o'zaro bog'liqligi aniqlanadi, bu esa korxona faoliyati turlarini tushunish va talqin qilishda xilma-xillikka, terminologiyada chalkashlikka olib keladi.

- sanoat korxonasining operatsion faoliyati strategiyasi raqamli xususiyatlar va optimallashtirish mezonlari to'plamiga ega bo'lgan operatsion faoliyatni amalga oshirishning maqsadli, miqdoriy jihatdan aniqlangan rejasi sifatida tushunilmaydi, buning natijasida adabiyotlarda keltirilgan boshqaruv strategiyalari ko'pincha tavsifiy xarakterga egadir, amaliy jihatdan esa ahamiyati unchalik katta emas.

- sanoat korxonasining operatsion faoliyatini maqsadli ko'rsatkichi dinamikasi bo'lgan – mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi, shuningdek uning asosiy omili – aylanma mablag'lar, ularning dinamikasini birgalikda hisobga oluvchi

³³ Бланк И.А. Основы финансового менеджмента / И.А. Бланк. – К.: Ника-центр, Эльга, 2007. 180-с.

³⁴ Коробко, В.И. Теория управления: учебное пособие / В.И. Коробко. – М.: Юнити-Дана, 2015. 21-с.

strategiyalarining to'liq tasnifi mavjud emas. Bunday tasnifni ishlab chiqish korxonaning operatsion faoliyatini strategik boshqarishning barcha mumkin bo'lgan variantlarning butun majmuasini tushunish va korxona faoliyatining ma'lum sharoitlarida barcha mumkin bo'lgan eng yaxshi strategiya variantini tanlash uchun zarurdir.

- sanoat korxonasining operatsion faoliyatini maqsadli ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, uning faoliyat strategiyasini tuzatish mexanizmini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бланк И.А. Основы финансового менеджмента / И.А. Бланк. – К.: Ника-центр, Эльга, 2007. – 1248 с.
2. Борисов А.Б. Большой экономический словарь / А.Б. Борисов. – М.: Книжный мир, 2006. – 543 с.
3. Бузырев В.В. Методология совершенствования системы управления оборотными средствами предприятия стройиндустрии / В.В. Бузырев, А.А. Бобков // Известия Иркутской государственной экономической академии. – 2009. – №3. – С.88–92.
4. Веретенникова О.Б. Сущность оборотного капитала и его классификация / О.Б. Веретенникова, О.А. Лаенко // Вестник Омского университета. Серия: Экономика. – 2012. – №2. – С.178–183.
5. Голикова О.В. Понятие материальных оборотных активов и их роль в кругообороте средств предприятия / О.В. Голикова, Е.Г. Нестеренко // Вестник Волжского университета им. В.Н. Татищева. – 2010. – №21. – С.58–66.
6. Дудин М.Н. Сущность и методы управления оборотным капиталом организации / М.Н. Дудин, Н.В. Лясников // Экономика и социум: современные модели развития. – 2014. – №8–1. – С. 5–28.
7. Захарова Т.В. Системный подход к принятию решений при совершенствовании процесса управления оборотными средствами предприятий / Т.В. Захарова, Е.Ю. Карпычева // Вестник ОрелГИЭТ, 2013. – №3. – С.126–134.
8. Зотов В.П. Определение сущности оборотного капитала в современной экономике / В.П. Зотов, Е.А. Жидкова // Техника и технология пищевых производств. – 2014. – №2. – С.135–139.
9. Карпычева Е.Ю. Стратегии и модели управления оборотными средствами на предприятии / Е.Ю. Карпычева // Научные записки ОрелГИЭТ. – 2014. – №1. – С.169–177.
10. Коробко В.И. Теория управления: учебное пособие / В.И. Коробко. – М.: Юнити-Дана, 2015. – 383 с.
11. Кузьминых А.О. Необходимость классификации оборотных активов / А.О. Кузьминых, Т.Б. Лейберт // Проблемы современной экономики (Новосибирск). – 2012. – №10. – С.119–123.
12. Кураков Л.П. Экономика и право: словарь-справочник / Л.П. Кураков, В.Л. Кураков, А.Л. Кураков. – М.: Вуз и школа, 2004. – 1072 с.
13. Ларионова, И.А. Задачи совершенствования методик диагностики и управления оборотными средствами с использованием интегральных

показателей и оптимизационных моделей / И.А. Ларионова / Вестник Самарского государственного экономического университета. – 2008. – №12. – С.64–69.

14. Малявкина Л.И. Цифровая экономика: анализ основных подходов к определению / Л.И. Малявкина // Образование и наука без границ: фундаментальные и прикладные исследования. – 2017. – №6. – С.198–202. Рогова О.С. Теоретические аспекты эффективности использования оборотных средств / О.С. Рогова, Г.З. Ситдикова // NOVAINFO. – 2015. – №32–1. – С.103–107.

15. Машунин Ю.К. Теория управления. Математический аппарат управления в экономике: учебное пособие / Ю.К. Машунин. – М.: Логос, 2013. – 448.

16. Машунин Ю.К. Теория управления. Математический аппарат управления в экономике: учебное пособие / Ю.К. Машунин. – М.: Логос, 2013. – 448.

17. Орехова С.В. Оценка устойчивости экономического роста металлургического комплекса / С.В. Орехова // Вестник НГУЭУ. – 2017. – №2. – С.204–220.

18. Рожков И.М. Выбор стратегий управления оборотными средствами предприятия с целью повышения относительной добавленной стоимости производимой им продукции / И.М. Рожков, А.А. Бойков, И.А. Ларионова, О.В. Шилов, П.О. Арсеева // Экономика в промышленности. – 2015. – №2. – С.83–91.

19. Терминологический словарь банковских и финансовых терминов [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://dic.academic.ru/dic.nsf/fin_enc/26027.

20. Третьякова Е.А. Анализ политики управления оборотным капиталом малых предприятий сферы промышленного производства / Е.А. Третьякова, Е.А. Исмагилова // Экономический анализ: теория и практика. – 2010. – №26 (191). – С.13–20.

21. Шагаева Е.Ю. К вопросу об управлении оборотными средствами предприятий муниципальной формы собственности / Е.Ю. Шагаева // Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. – 2008. – №2. – С.168–171.

22. Энциклопедический словарь [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://dic.academic.ru/dic.nsf/es/90977/>.